

## BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK OQIBATLARI

*Yuldosheva Surayyo Rustamovna*

*Samarqand viloyati Toyloq tumani 7- maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur mavzuda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari, uning qisqa va uzoq muddatli psixologik, ijtimoiy hamda jismoniy oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, bunday holatlarning oldini olish va bolalarni himoya qilishning muhim jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** zo‘ravonlik, bola, psixologiya, travma, qo‘rquv, agressiya, himoya, tarbiya.

## KIRISH

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik — bu ularning jismoniy, ruhiy yoki hissiy zarar ko‘rishiga olib keladigan har qanday salbiy munosabat yoki harakatdir. Zo‘ravonlik jismoniy (urish, jarohat yetkazish), psixologik (haqoratlash, qo‘rqitish), yoki e‘tiborsizlik (parvarish qilmaslik) ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Bunday holatlar bolaning rivojlanishiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Eng avvalo, bolada qo‘rquv va xavotir kuchayadi. U o‘zini xavfsiz his qilmaydi, doimiy stress holatida yashaydi. Bu esa uning ruhiy barqarorligiga zarar yetkazadi.

Zo‘ravonlikka uchragan bolalarda ko‘pincha o‘ziga bo‘lgan ishonch pasayadi. Ular o‘zini qadrsiz his qiladi, o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaydi. Natijada shaxs sifatida rivojlanishida muammolar yuzaga keladi. Yana bir muhim oqibat — agressiv yoki aksincha, tortinchoq xulq-atvor shakllanishidir. Ba‘zi bolalar zo‘ravonlikni takrorlaydi, boshqalarga nisbatan agressiv bo‘lib qoladi. Boshqalari esa ichki dunyosiga yopilib, muloqotdan qochadi.

Zo‘ravonlik bolaning ta‘lim jarayoniga ham salbiy ta‘sir qiladi. Diqqatning pasayishi, xotira muammolari va o‘qishga qiziqmaslik kuzatiladi. Bu esa uning akademik natijalariga ta‘sir etadi.

Uzoq muddatda esa zo‘ravonlik oqibatlari yanada chuqurroq bo‘lishi mumkin. Voyaga yetganida bunday bolalarda ruhiy muammolar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari va noto‘g‘ri xulq-atvor shakllanishi ehtimoli ortadi.

Bu muammoning oldini olishda oila, maktab va jamiyatning roli katta. Ota-onalar bolaga mehr va e‘tibor berishi, zo‘ravonliksiz tarbiya usullarini qo‘llashi zarur. Maktabda esa psixologlar bolalarning ruhiy holatini kuzatib borishi va kerakli yordam ko‘rsatishi muhim.

Zo‘ravonlik - bu jarohatlash, suiste‘mol qilish, zarar yetkazish yoki yo‘q qilish uchun jismoniy kuch ishlatish hisoblanadi.

Oilaviy zo‘ravonlik — bu oila a‘zolari o‘rtasida sodir bo‘ladigan jismoniy, psixologik, iqtisodiy yoki boshqa turdagi bosim va zo‘rlik harakatlaridir. Bu holat

ko'pincha er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasida yuzaga keladi va oila muhitining buzilishiga olib keladi.

**Oilaviy zo'ravonlikning asosiy turlari quyidagilar:**

- jismoniy zo'ravonlik (urish, jarohat yetkazish)
- psixologik zo'ravonlik (haqoratlash, tahqirlash, qo'rqitish)
- iqtisodiy zo'ravonlik (moliya ustidan nazorat, ehtiyojlarni qondirmaslik)
- e'tiborsizlik (parvarish qilmaslik, mehr bermaslik)

Bu holatlarning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo'ladi: oiladagi nizolar, stress, noto'g'ri tarbiya, iqtisodiy qiyinchiliklar, ichki ziddiyatlar va ba'zan salbiy ijtimoiy muhit.

Oilaviy zo'ravonlikning psixologik oqibatlari juda jiddiydir. Avvalo, shaxsda qo'rquv, xavotir va ishonchsizlik paydo bo'ladi. U o'zini xavfsiz his qilmaydi, doimiy ruhiy bosim ostida yashaydi.

Bolalar uchun bu yanada xavflidir. Zo'ravonlik muhitida o'sgan bola ko'pincha agressiv yoki tortinchoq bo'lib qoladi. Uning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayadi, ijtimoiy moslashuvi qiyinlashadi.

Shuningdek, oilaviy zo'ravonlik oila a'zolari o'rtasidagi ishonch va hurmatni yo'qotadi. Bu esa oilaning barqarorligiga putur yetkazadi.

Bunday holatlarning oldini olishda birinchi navbatda muloqot madaniyatini rivojlantirish muhimdir. Muammolarni zo'ravonlik orqali emas, balki suhbat va murosa orqali hal qilish kerak.

Ota-onalar va turmush o'rtoqlar o'z hissiyotlarini boshqara bilishi, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi zarur. Psixologik yordam va maslahatlar ham bu jarayonda samarali hisoblanadi.

Oilaviy zo'ravonlik — bu jiddiy ijtimoiy va psixologik muammo bo'lib, uning oldini olish uchun oila, jamiyat va mutaxassislar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bolalarga zo'ravonlik ko'rsatish oqibatlari:

Zo'ravonlikni amalga oshiruvchi ota-onalar har bir bolaga kerak bo'lgan ishonchni so'zsiz buzadilar-bolani uni ardoqlashlariga ishontirishga urinadi. Ularning jazolashlari quyidagi yolg'onlari o'z ichiga oladi: go'yoki ular tarbiyaviy jarayonlarni hal qilishadi va aslida shunday qilib ota-onalar o'z g'azablarini boladan olishadi. Aksariyat hollarda kattalar bolalarini o'zlari bolaliklarida kaltaklanganliklari uchun urishadi. Jismoniy jazolar bolani mutloq tarbiyaga zid dalillarni qabul qilishga o'rgatadi: "men seni o'z manfaating uchun uraman", bolaning miyasi bu ma'lumotni saqlab qoladi. Ular g'azab va qasos olish istagini keltirib chiqaradi, bu istak ongda saqlanadi va faqat keyinroq o'zini nomoyon qiladi. Ular o'z g'azab-uqubatlariga va boshqalarga nisbatan rahim-shafxatli bo'lishga moyillikni yoq qiladi, shu bilan bolaning o'zini va dunyoni bilish qobiliyati cheklanadi.

Bola bulardan qanday soboq oladi: Bola o'zini hurmatga loyiq emas dep his qiladi, yaxshi narsalarni jazo orqali o'rganish mumkin dep hisoblaydi (bu odatda bolaga o'z navbatida boshqalarni jazolash istagini o'rgatadi), azob-uqubatlarni yurakka olib bormaslik va ularni e'tiborsiz qoldirish kerak (bu immunitet tizimi uchun xavfli), zo'rovonlik bu-sevgining nomoyon bo'lishi (ko'plab notog'ri tushunchalar shu asosda shakllanadi), tuyg'ularni rad etish-bu normal, sog'lom hodisa dep tushinishadi, kattalardan himoyalaniishning imkoni yoq kabi notog'ri tushunchalar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi Prezidentning 24.12.2025 yildagi **PF-256-son** Farmoni bilan 2026-2030 yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi va uni 2026-2027-yillarda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. 2026-yil 1-fevraldan zo'rvonlik oqibatida oiladan ajratib olingan, o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan, shuningdek, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan bolalar uchun professional tutingan oila xizmati joriy etiladi. Bunda:

- professional tutingan oilani tashkil etishga talabgorlar ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlari asosida o'qitiladi;
- tanlab olingan bolalar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan tuzilgan shartnoma asosida professional tutingan oilalarga joylashtiriladi;
- har bir bolani parvarishlash xarajatlari uchun Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan har oyda EKIHning ikki baravari miqdorida pul mablag'lari to'lanadi;
- har bir bolaning yashash xarajatlari uchun oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining qonunchilik hujjatlarida belgilangan yashash xarajatlari miqdorida mablag' ajratiladi.

Birinchi bosqichda Qashqadaryo, Navoiy va Xorazm viloyatlarida, 2026 yil yakuniga qadar respublikaning boshqa hududlarida bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixcham markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, jinsiy zo'rvonlik oqibatida oiladan ajratib olingan bolalar majburiy tartibda alohida joylashtirish sharti bilan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan Respublika ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazining hududiy markazlariga joylashtirilishi mumkin.

Hujjat bilan 2026 yil 1 sentyabrdan boshlab:

- zo'rvonlikdan jabr ko'rgan yoki zo'rvonlik guvohi bo'lgan bolalarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladi;
- takroriy jarohatlarni minimallashtirish uchun zo'rvonlikdan jabrlangan bolalarning dastlabki ko'rsatmalari majburiy tartibda videoyozuv orqali qayd etiladi;

• mulkchilik shaklidan qat'ri nazar, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari xodimlari tomonidan bolalarga nisbatan zo'rvonlik bilan bog'liq aniqlangan holatlar to'g'risida xabar bermaganlik uchun ma'muriy javobgarlik joriy etiladi.

### **Bolalar uchun ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish**

2026 yil 1 martdan boshlab "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun "mehribon oila" xizmati tashkil etiladi. Ularga bepul oilaviy terapiya xizmatlari ko'rsatiladi. Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan bolalar ularning xulq-atvori, iste'dodi va qiziqishlarini inobatga olgan holda Ijtimoiy himoya milliy agentligining yo'llanmasi asosida tuman (shahar) bolalar masalalari bo'yicha komissiyasining qaroriga ko'ra o'quv yili davomida ta'lim tashkilotlariga (ro'yxat bo'yicha) joylashtirilishi mumkin.

A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzilmasiga o'tkazilmoqda. Quyidagilar Filial faoliyatining qo'shimcha yo'nalishlari etib belgilandi:

- inklyuziv va maxsus ta'lim, gerontologiya, psixologiya, ijtimoiy pedagogika, adaptiv sport, hayot faoliyatining turli sohalarida ijtimoiy ish, oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash;
- inklyuziv va maxsus ta'lim, adaptiv sport turlari bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- inklyuziv va maxsus ta'lim, gerontologiya, psixologiya va boshqa yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish.

2026 yil 1 aprelga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, zo'rvonlik sodir etgan yoki zo'rvonlik sodir etishga moyilligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hamda bunday ma'lumotlarni almashish funksiyasiga ega bo'lgan Yagona elektron platformani ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.

Zo'rvonlikka uchragan bolalar atrofdagilarga nisbatan zaif va himoyasizlarni masxara qilish, o'qituvchilarga yomon munosabatta bo'lish sinfdoshlari bilan yuzaga keladigan muntazam tortishuvlar kabi salbiy munosabatta bo'ladi. Zo'rvonlikka uchragan va g'azab tuyg'ularini qayta boshidan keshirish imkoniyatini beradigan teleshoular va video o'yinlarni tez-tez tomosha qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki bolalarga nisbatan zo'rvonlik ularning tarbiyasiga va ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ota-onalar oilada, farzand tarbiyasida zo'rvonlik holatlarining oldini olishga va zo'rvonlik holatlarining ro'y berishiga yol qoymasliklari talab etiladi. Agar bola sizga zo'rvonlik haqida gapirsa:

- Farzandingizga jiddiy munosabatda bo'ling.

- Tinch bo'lishga harakat qiling.

- Bolaning hayotiga qanchalik tahdid solayotganini aniqlang.

- Farzandingizni so'zlar bilan ishontiring va qo'llab-quvvatlang.

- "Men nima bo'lganligi haqida gapirishim kerak ... (advokat, o'qituvchi). Ular sizga bir nechta savol berishni xohlashadi. Ular sizni xavfsiz his qilishga harakat qilishadi. Ba'zi sirlar borki, agar sizga zulm qilingan bo'lsa, ularni saqlab bo'lmaydi."

- Savollarga sabr-toqat bilan javob bering va bolaning tashvishini engillashtiring. O'zingiz bajara olmaydigan va'dalarni berishdan ehtiyot bo'ling.

Agar sizning sinfingizda oilada zo'ravonlikka uchragan bolangiz bo'lsa, quyidagilarni ta'minlash orqali yordam berishingiz mumkin:

1. Sinfda bolaning normal holatini saqlang.

2. Bolaga nimani xohlashini va nimani xohlamasligini hal qilmang. So'rang! Bu bola uchun qulay bo'lgan darajada iliq munosabat ko'rsatishga yordam beradi.

3. Ovozingizda iliqlik va iliqlikning oddiy ifodasini ishlating.

4. Bola bilan sodir bo'lgan voqea tafsilotlarini boshqa hech kim bilan muhokama qilmang.

Bolaning tajribalari uning atrofidaqilar uchun mo'ljallanmagan.

5. Bolaning ishini ijobiy ko'rsatish, uni muhokamalarga jalb qilish va hokazo.

6. Dastlab, bola o'z resurslarini safarbar etgunga qadar nima qilish kerakligini va qanday munosabatda bo'lishini aytishni xohlashi mumkin.

7. Foydali o'qish materiallari va badiiy ijodkorlikni taqdim etish farzandingiz uchun histuyg'ularini ifoda etish imkoniyatidir.

Shunday qilib, zo'ravonlikka qarshi turish va zo'ravonlik tajribasidan keyin oqibatlarini kamaytirish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida maktab psixologlari, o'qituvchilari, huquq-tartibot idoralari xodimlari va ota-onalar tomonidan maqsadli ishlarni tashkil etishlari kerakligini ko'ramiz.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarga nisbatan zo'ravonlik ularning hayotiga jiddiy zarar yetkazadi. Uni oldini olish va bolalarni himoya qilish har bir jamiyatning muhim vazifasidir.

### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim muassasasida zo'ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo'llanma / V. Adescalita, R. Josanu, I. Moldovanu, T. Epoyan tomonidan tahrirlangan - Kishinyov, 2017. -- 128b.
2. Volkova E.N., Volkova I.V., Isaeva O.M. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishini baholash // Ijtimoiy psixologiya va jamiyat. 2016. 7-jild. No 2. 19-34-

betlar. 3. Aptikieva L.R., Aptikiev A.X., Bursakova M.S. Zo’ravnlikdan omon qolgan o’smirlar bilan psixologik-pedagogik ishlarni tashkil etish // Orenburg davlat universitetining axborotnomasi No 9 (170), 2014. P.4-9.

3. Malkina-Pykh IG Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam - Moskva: Eksmo nashriyoti, 2005. - 960 p.
4. Ziyonet